

О‘ZBEK VA RUS TILLARIDA SO‘Z TARTIBI O‘XSHASHLIKLARI VA FARQLARI

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

Axmadjonova Gulhayo Zafarbek qizi.

Ilmiy maslahatchi

Abdullayev Sirojiddin Shaxsultanovich.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va rus tillaridagi so‘z tartibining umumiy va farqli jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilinadi. Har ikki tilning grammatik tuzilmasi va sintaktik qoidalari solishtirilib, ularning pragmatik vazifalari misollar orqali yoritiladi. Maqola til o‘rganuvchilar va filologiya yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: So‘z tartibi, sintaksis, o‘zbek tili, rus tili, qiyosiy tahlil, pragmatika, grammatik qurilish.

Аннотация: В данной статье на научной основе проводится сравнительный анализ сходств и различий в порядке слов в узбекском и русском языках. Рассматриваются грамматическая структура и синтаксические особенности обоих языков, а также их прагматические функции на примерах. Статья представляет практический интерес для изучающих язык и студентов филологических направлений.

Ключевые слова: порядок слов, синтаксис, узбекский язык, русский язык, сравнительный анализ, прагматика, грамматическая структура

Abstract: This article presents a comparative scientific analysis of the similarities and differences in word order in Uzbek and Russian. The grammatical structures and syntactic rules of both languages are compared, and their pragmatic functions are illustrated with examples. The article is of practical value for language learners and philology students.

Key words: word order, syntax, uzbek language, russian language, comparative analysis, pragmatics, grammatical structure.

Til–inson tafakkurining ifodasi va muloqot vositasi sifatida jamiyatda muhim ijtimoiy hodisa sanaladi. Har bir tilning o‘ziga xos sintaktik qurilishi bo‘lib, bu tizim so‘zlarning gapda qanday tartibda joylashishini belgilaydi. So‘z tartibi nafaqat grammatik qurilishga, balki mantiqiy va uslubiy ifodaga ham xizmat qiladi.

O‘zbek va rus tillari ikki xil til oilasiga mansub bo‘lishiga qaramay, bu tillarda muloqot jarayonida so‘zlar qanday tartibda kelishi masalasi har ikki til o‘rganuvchilari uchun dolzarb hisoblanadi. O‘zbek tili agglutinatив, ya’ni qo‘shimchalar yordamida so‘z yasovchi til bo‘lsa, rus tili flektiv, ya’ni so‘z o‘zgarishlari asosan so‘zning ichki tuzilishida yuz beradigan tildir. Bu jihatlar ularning so‘z tartibida ham farqlarni yuzaga keltiradi.

O‘zbek tili – agglutinatив turkiy tillar guruhiga mansub bo‘lib, unda so‘zlarning tartibi qat’iy grammatik qoidalarga bo‘ysunmaydi, balki mantiqiy urg‘u va uslubiy maqsadlarga qarab o‘zgaradi. Garchi gapdagi asosiy tartib “Subyekt – Ob’yekt – Predikat” (SOP) shaklida bo‘lsa-da, bu qat’iy talab emas.

Masalan: Men kitob o‘qiyman. – bu tabiiy va eng odatiy tartib.

Kitobni men o‘qiyman. – bu holda urg‘u menga berilgan.

O‘qiyman men kitobni. – bu esa badiiy yoki emotsional nutqda ishlatiladi.

O‘zbek tilida so‘z tartibi sintaktik rolni emas, balki pragmatik funksiyani, ya’ni ma’no urg‘usini belgilaydi. Shuning uchun ham erkin so‘z tartibi tilning asosiy xususiyatlaridan biridir. Bu erkinlik o‘z navbatida kontekstga mos ravishda gap qurishga imkon beradi.

So‘zlar o‘rtasidagi tartib o‘zgarishi ko‘pincha quyidagilarga bog‘liq:

Urg‘u va emotsional ta’sir.

Sizni men emas, u ko‘rgan.

Ma’lumot yangiligi yoki tanishligi:

Bugun imtihon bor. – yangilik.

Imtihon bugun bo‘ladi. – tanishlik (oldin aytilgan)

O'zbek tilida ravishlar, aniqlovchilar, modal so'zlar va boshqa yordamchi birliklar ham so'z tartibiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, fe'lning oxirida kelishi – o'zbek tilining ajralmas belgilaridan biridir.

Rus tili flektiv tillar guruhiga kiradi, ya'ni unda so'zlar qo'shimchalar orqali turli grammatik vazifalarni bajaradi. So'zlar qanday tartibda kelishidan qat'i nazar, ularning sintaktik roli ko'proq grammatik shakl (ya'ni egalik, tuslanish, kelishik va h.k.) orqali aniqlanadi.

Rus tilida asosiy so'z tartibi — “Subyekt – Predikat – Ob'yekt” (SPO), ya'ni:

Мальчик читает книгу. – (Bola kitob o'qimoqda). Bu eng keng tarqalgan va grammatik jihatdan neytral shakl. Biroq rus tilida ham so'z tartibi moslashuvchan bo'lib, urg'u, kontekst va uslubiy holatga qarab o'zgarishi mumkin:

Книгу читает мальчик. – bu holda urg'u “kitob”ga tushadi.

Читает мальчик книгу. – badiiy yoki emotsional uslubda ishlatiladi.

Shunga qaramay, rus tilida so'z tartibi o'zgarishi grammatik ma'noni emas, balki ma'lumotning qanday taqdim etilishini belgilaydi. Bu tematik-rimatik tuzilma deb yuritiladi.

Тема – avvaldan tanish ma'lumot:

Сегодня студент написал эссе. – тема: “bugun”, тема: “student yozgan”

Эссе написал сегодня студент. – тема: “esse”, тема: “bugun yozgan”. Rus tilida otlar va sifatlar, aniqlovchilar, predloglar qat'iy tartibda joylashadi, bu esa gap tuzilishida nizomiy (regular) tartibni ta'minlaydi. Ayniqsa, rasmiy yozma uslubda erkin so'z tartibi kam qo'llanadi.

O'zbek va rus tillarining so'z tartibi ayrim jihatlarida o'xshash ko'rinsa-da, ularning ichki tuzilmasi va lingvistik asoslari tubdan farq qiladi. Quyida asosiy o'xshashlik va tafovutlar tahlil qilinadi:

O'xshashliklar:

1. So'z tartibining moslashuvchanligi:

Har ikkala til ham sintaktik jihatdan so'zlarni turli tartibda joylashtirishga imkon beradi. Bunda kontekst va urg'u asosiy omil bo'ladi.

O'zbekcha: Men kitob o'qiyman / Kitobni men o'qiyman.

Ruscha: Я читаю книгу / Книгу читаю я.

2. Tematik-rimatik qurilishga asoslanish

Har ikki tilda yangi ma'lumot (tema) ko'pincha gap oxirida yoki urg'ulangan pozitsiyada joylashadi.

Bugun men imtihon topshirdim / Сегодня я сдала экзамен.

1. Til tipi va grammatik roli:

O'zbek tili agglutinativ bo'lgani uchun, so'z tartibining grammatik rolga ta'siri kamroq. Rus tilida esa so'zlar ko'proq morfologik shakllar orqali bog'lanadi, shuning uchun sintaktik rolni aniqlashda so'z tartibi kamroq ahamiyatga ega.

2. Standart tartib farqi:

O'zbek tilida odatdagi tartib: Subyekt – Ob'yekt – Predikat (SOP)

Rus tilida odatdagi tartib: Subyekt – Predikat – Ob'yekt (SPO)

3. Aniqllovchi va aniqlanuvchi o'rni:

O'zbek tilida aniqllovchi so'z (masalan, sifat) aniqlanuvchidan oldin keladi: yashil daraxt. Rus tilida ham xuddi shunday: зелёное дерево. Ammo rus tilida ba'zida aniqllovchi gap oxirida ham kelishi mumkin (badiiy uslubda): дерево зелёное.

4. Kontekst va pragmatik ta'sir so'z tartibining asosiy vazifasi faqat grammatik to'g'rilikni ta'minlashdan iborat emas. U tilning pragmatik funksiyasini ham o'taydi, ya'ni gapdagi ma'no va maqsadni samarali tarzda ifodalashga xizmat qiladi. (Fayzullayev). O'zbek va rus tillarida so'z tartibining pragmatik roli o'xshash bo'lishi bilan birga, bu tillar o'rtasida ba'zi farqlar ham mavjud. Pragmatik ta'sirlar:

1. Urg'u va ajratish:

Har ikkala tilda ham so'z tartibi yordamida gapda urg'u qo'yiladi. Bu urg'u ma'lumotning yangiligi yoki muhimligini ta'kidlaydi.

O'zbekcha: Bu kitobni men o'qiyman! (Urg'u: men)

Ruscha: Эту книгу я читаю! (Urg'u: я)

2. Emotsional ta'sir:

Badiiy nutqda so'z tartibi orqali hissiyot va psixologik holatlar ifodalanadi.

O'zbekcha: Haqiqatan ham, bu yerda yomon emas!

Ruscha: На самом деле здесь не так уж и плохо!

3. Sinfiy va ijtimoiy farqlar:

Rus tilida so'z tartibining pragmatik funksiyasi ko'proq ijtimoiy va rasmiy kontekstga bog'liq. Masalan, rasmiy so'zlashuvda so'zlar qat'iy tartibda bo'ladi.

O'zbek tilida esa erkin tartib ko'proq ishlatiladi.

So'z tartibining kontekstga qarab o'zgarishi:

1. Rasmiy va norasmiy til:

Rus tilida so'z tartibi aniqroq, rasmiy nutqda qat'iy bo'ladi. O'zbek tilida esa informal nutqda so'zlar ko'proq erkin joylashadi, lekin rasmiy nutqda ham tartib nisbatan moslashuvchan bo'ladi.

2. Yangi ma'lumot taqdimoti:

O'zbek tilida gapda yangi ma'lumot odatda oxirgi o'rinda joylashadi.

Bugun men darsga bormadim. Сегодня я не пошёл на занятия (Ruscha variant). O'zbek va rus tillarining so'z tartibi o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlarni tahlil qilish, nafaqat tilshunoslik, balki lingvistik o'rganishning keng doirasida muhim ahamiyatga ega. O'zbek tili agglutinatив til sifatida so'zlarni qo'shimchalar orqali kengaytiradi va ular o'rtasidagi bog'lanishlar erkin tartibda yuzaga keladi. Rus tili esa flektiv til sifatida so'zlarning morfologik shakllariga bog'lanadi, bu esa so'z tartibini aniqroq va qat'iyroq belgilaydi.

Kontekst va pragmatik ta'sirlar har ikkala tilda ham so'z tartibining ahamiyatini oshiradi, chunki so'zlarning joylashuvi gapdagi ma'no va urg'uni aniqlaydi. Rus tilida so'z tartibi ko'proq grammatika va sintaksisga asoslangan bo'lsa, o'zbek tilida bu jarayon ko'proq pragmatik va emotsional maqsadlar bilan bog'liq. Bu farqlar, shuningdek, har bir tilning ijtimoiy va madaniy nuqtai nazaridan ham farq qiladi.

Maqolada keltirilgan tahlil va misollar shuni ko'rsatadiki, o'zbek va rus tillaridagi so'z tartibi o'xshashligi va farqlari nafaqat grammatik, balki pragmatik, badiiy va emotsional o'lchamlarda ham o'z ifodasini topadi. Shu sababli, til o'rganuvchilariga bu farq va o'xshashliklarni yaxshi tushunish, ularni amaliyotda qo'llash uchun

o'rganish zarur. Bu o'rganish jarayoni tilni yanada boyitib, kommunikativ malakani rivojlantirishga xizmat qiladi, shuningdek, ikki til o'rtasidagi madaniy va lingvistik farqlarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Bundan tashqari, o'zbek va rus tillaridagi so'z tartibi o'xshashlik va farqlari turli kontekstlarda muloqotda tilni qanday ishlatishimizga ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, rasmiy yoki norasmiy nutq, adabiy yoki kundalik muloqotda so'zlarning joylashishi muhim o'rin tutadi. Har ikki tilning so'z tartibi o'rgatuvchilar va o'rganuvchilar uchun tilni aniq va samarali ifodalashda juda katta rol o'ynaydi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Dobrushina, L. I. (2006). Grammatika russkogo yazyka. Moskva: Izdatel'stvo "Russkiy yazyk".
2. Avdyukova, E. V. (2013). Sintaksis i stilistika russkogo yazyka. Moskva: Izdatel'stvo "VKontse".
3. G'aniyeva, D. (2020). O'zbek tilining sintaksisi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
4. Fayzullayev, T. (2015). O'zbek tilida gap qurilishi va so'z tartibi. Tashkent: Fan va texnologiya.